

# USMON AZIM SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI VA INSON KECHINMALARI.

Urinbayeva Surayyo

Urganch davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iste'dodli shoir Usmon Azim she'riyatidagi tabiat va tabiat hodisalarini tasvirlash, tarannum etish jihatlari o'rganildi. Tabiat tasviri bilan yo'g'rilgan she'rlar tahlili orqali ijodkor she'riyatining ayrim muhim xususiyatlari ochib beriladi. Peyzaj lirikasidagi insonning ruhiy holati va kayfiyatini manzaralashtirish masalalari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** tabiat lirikasi, peyzaj tasviri, psixologik tasvir, badiiy detallar, lirik qahramon, poetik ko'chim, metafora, lirik kechinma

**Abstract.** In this article, the aspects of describing and glorifying nature and natural phenomena in the poetry of the talented poet Usman Azim were studied. Some important features of the artist's poetry are revealed through the analysis of poems with nature images. The issues of beautifying the mental state and mood of a person in landscape lyrics were studied.

**Key words:** nature lyric, landscape image, psychological image, artistic details, lyrical hero, poetic movement, metaphor, lyrical experience

Tabiat barcha san'at turlari va janrlari singari lirikaning ham boqiy mavzularidan biridir. San'at asarlarining qaysi birini olib qaramaylik, undagi peyzaj tasvirida albatta inson ishtirok etadi, tabiatning u yoki bu xossasi unga bo'lgan inson munosabati orqali qayta kashf etiladi; shu sababdan badiiy asardagi tabiat kartinalarida emotsional bo'yoqdorlik ufurib turadi. Shu ma'noda peyzaj lirikada inson his-tuyg'u va kechinmalarining yorqin tajassum topishi uchun fon va ayni vaqtda organik hujayra vazifasini o'taydi. Usmon Azim chizgan poetik manzaralar ko'z o'ngimizda yaqqol jonlanadi:

Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida  
Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq  
Jonim, qalbim she'riyatning pichog'ida  
Zamin – tilsim, osmon – tilsim, she'r beshavqat<sup>1</sup>

Misralardagi har bir so'z shunday tanlangan va joylashtirilganki, so'z yoki so'zlar o'rnini almashtirish badiiy mazmunga putur yetkazadi, deyarli har bir so'zni poetizm (kuzak, gulgun, shafaq, zamin) darajasida baholash mumkin, har bir so'zda metaforik ko'chim (titramoq, quchoq, o'chirmoq, pichoq, tilsim, beshafqat) vujudga keltirilgan va ularning birikuvidan poetik talablarga mos keladigan obrazli ifodalar yuzaga keltirilgan. Usmon Azim uchun she'r – beshafqat, she'r – she'riyatning pichog'i. She'rda tabiat tasviri va mazmun go'yo bir-birini inkor etgan individual metafora, o'xshatish va parafrazalardan tuzilgandek, aslida maqsad bitta: individual betakror obraz yaratish.

Ohista-ohista yog'adi yomg'ir,  
Ohista-ohista qo'zg'alar shamol.  
Ohista-ohista to'kar yumshoq nur  
Bulutlar bag'ridan ko'ringan hilol.<sup>2</sup>

Shoir o'z hislarini qalamga ko'chiradi. Fikrlarini hayotiy tafsillar bilan asoslashga intiladi-ki, she'rni o'qiganimizda tabiiy lavhalarga hamohang bo'lgan asosli vaziyat ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalarni jonlantirish, shaxslantirish orqali hosil bo'luvchi tashxis san'ati qo'llangan ushbu parchada lirik qahramonning ruhiy holatini ifoda etadi. "O'xshatish - she'riyat, kartina-she'riyat, voqea she'r bop bo'lishi mumkin, tabiat – she'riyat, his-tuyg'u-she'riyat"<sup>3</sup> Ko'rinadiki, lirikada peyzajning vazifasi g'oyat keng va rang-barangdir. U atrof-tevaragimizdagi narsa va buyumlar tabiatidagi go'zallikni namoyon etish

<sup>1</sup> Usmon Azim. Saylanma. T.: „Sharq“, 1995. 1-bet

<sup>2</sup> O'sha manba. 24-bet.

<sup>3</sup> Olimjon H.. III tomlik, "Tanlangan asarlar", III tom, 132-bet.

orqali estetik didimizni o‘stiradi; shuningdek, ona o‘lka timsoli, uning poetik obrazlari sifatida ham tajassum topadi.

Quyosh o‘zi ming-ming asrkim,  
O‘t ismini yillarga o‘ymish  
Tush. Saraton ketmon chopar jim –  
U ismini unutib qo‘ymish.<sup>4</sup>

Tabiat “o‘tli quyosh” dan iliqlik olib yana tilga kiradi. Shoira “saraton” obrazi orqali xalqimiz bag‘riga yashiringan o‘zlikni she’rxonga anglatmoqchi. Saraton - zahmatkash, sodda, ayni paytda, odamzodga xos mehr-oqibat va hamiyatni, birdamlikni o‘zida mujassamlashtirgan dehqon. Ushbu lirik chizgi shoira inson va tabiat rishtalarini ifoda etishdagi ijodiy metodi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Bog‘ qo‘ynida ikki daraxt  
Bir-biriga intizor.  
Sen — bir daraxt,  
Men — bir daraxt  
Kuyib-kuyib o‘tdik, yor.<sup>5</sup>

Usmon Azim lirik chizgilari orqali tabiatni inson botiniga ko‘chiradi. Lirik qahramon – daraxtga qiyoslanadi. Demak, tabiat ham insonga aylanyapti, insonlar kabi his-tuyg‘ulari bilan bo‘lishyapti. “Tabiat barcha san’at turlari va janrlari qatori lirikaning ham boqiy mavzularidan biridir. San’at asarlarining qaysi birini olib ko‘rmaylik, undagi peyzaj tasvirida, albatta, inson ishtirok etadi, tabiatning u yoki bu xossasi unga bo‘lgan inson munosabati orqali qayta kashf etiladi”<sup>6</sup>

Yomg‘irli kechada falakka uchdim,  
Shamollar yuzimga yopishdi – ivib.  
Yulduzlar armonli shivirga tushdi:

<sup>4</sup> Azim Usmon. Sog‘inch/She’rlar. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2007.37-bet

<sup>5</sup> O‘sha manba.39-bet

<sup>6</sup> Rahimjonov H. Davr va o‘zbek lirikasi. – T.:Fan, 1979. 156-bet

–Yomg‘irning hidi-ku,

–Yomg‘irning hidi.<sup>7</sup>

Demak, tabiatning insonga ko‘rsatuvchi eng buyuk ta‘sir kuchlaridan biri uning fikr va his-tuyg‘u uyg‘otishidir. Sharros urib quygan yomg‘ir, yulduzlarning armonli shivirlashi, gir-gir aylanib yurib yuzimizga qo‘nguvchi laylak qor, dengiz shovullashi, shamollarning munis ertagi, momoqaldiraq sadosi, tog‘lar salobati – hamma-hammasi muayyan o‘y-fikrlar va his-tuyg‘ular silsilasini vujudga keltirish bilan barobar ana shu tashqi dunyoni idrok etishga bo‘lgan kuchli intilishni yuzaga keltiradi. Bu intilishning mohiyati obyektiv voqelikni yanada chuqurroq idrok etishdan iboratdir.

Osmon cho‘g‘ elaydi. Tunni tiralab  
Uchqunlar – og‘ritib botadi ko‘zga.  
Men sezib turibman titranmoqda lab,  
O‘chgan yulduzlarday yosh oqar ko‘zdan.

Tabiat tasviri, lirik kechinmalar orqali shoirning teran tuyg‘ulari va fikrlaridan, shuning bilan birgalikda, davr, voqelik, odamlar, hayot to‘g‘risidagi, insonning voqelikdagi o‘rni xususidagi chuqur o‘y-mushohadalaridan voqif bo‘lamiz. Bunday asarlarda tabiat faqatgina fon emas, balki asar umumiy g‘oyasi va mazmunining ajralmas qismiga aylanadi va ma‘lum darajada shoir kechinmalarining, u ilgari surmoqchi bo‘layotgan g‘oya va mazmunning bir qismi bo‘lib qoladi.

Bir sovuq qayg‘uga duch keladi qo‘l  
Qayga borishini bilmaydi shamol.  
Daraxtga urilar, barglarni yular,  
Uning g‘azabidan bo‘lmaydi poymol –  
Bizning jim turishdan uchgan qayg‘ular.<sup>8</sup>

<sup>7</sup> Usmon Azim. Kuz:she‘rlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashr.2001. 6-bet

<sup>8</sup> O‘sha manba. 46-bet

Usmon Azimning har bir peyzaj she'rini uning lirik e'tirofidek qabul qilamiz. Shoirning she'rlarida peyzaj insoniy ruh, muhabbat, dard, sevinch, xullas, emotsional kechinmalarni o'ziga singdirgan holda tasvirlanadi. Barcha poetik vositalar ana shu maqsadga xizmat qiladi. Shoir tasvirida tun, oqshom, bahor suvlari, dengiz manzaralari, o'tloqlar va boshqa omillarning o'quvchiga ta'sir ko'rsatishiga, emotsional kechinma va fikr uyg'otishiga sabab, shoir ular orqali inson qalbini, insonning ichki dunyosini ochib beradi.

Odatda poetik soddalik har xil bo'ladi. Usmon Azim lirikasida yuksak soddalik san'ati borki, bu ilhombaxsh izlanish, ijodiy mehnat samarasidir. Soddalik – bu poetik shakl va mazmunning organic birligi mevasidir. Bu mukammallik va yaxlitlikka erishishda shoirning ulkan ijodiy mashaqqatlari u qadar sezilmagandek, she'r go'yo shundoqqina yozilib qolgandek, yurakdan oqib tushgandek, ko'ngilning tub-tubidan quyilib kelgandek bo'ladi. Vaholanki, bu poetik soddalik shoirning yetuk mahorati hosilasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmon Azim. Saylanma. T.: „Sharq“, 1995.
2. Olimjon H.. III tomlik, “Tanlangan asarlar”, III tom , 132-bet.
3. Azim Usmon.Sog'inch/She'rlar. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2007
4. Rahimjonov H. Davr va o'zbek lirikasi. – T.:Fan, 1979.
5. Usmon Azim. Kuz:she'rlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr.2001.